

Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar- sentabr oylarida INVESTITSIYA FAOLIYATI

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida nomoliyaviy aktivlarga yo'naltirilgan jami investitsiyalar xajmi 3915,1 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lib, shundan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 3874,8 mlrd.so'mni tashkil qildi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 157,7 foizni tashkil etdi.

Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar

(mln.so'mda)


	Jami	Asosiy kapitalga investitsiyalar	Shu jumladan				Intellectual mulk ob'ektlariga investitsiyalar	Ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar
			Asosiy vositalarning kapital ta'mirlash		Jami	Ulardan bino va inshootlarni		
			Jami	ulardan: xujalik usulida				
Asosiy kapitalga investitsiyalar	3915060,0	3874809,7	40244,0	38468,5	40,8	3,4	6,4	
<i>shu jumladan mulkchilik shaklari bo'yicha:</i>								
Nodavlat	3299158,6	3293275,5	34367,1	34367,1	40,8	3,4	6,4	
Davlat	615901,4	581534,2	5876,9	4101,4				

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni mablag' manbalari bo'yicha taqsimlanishi

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 3874,8 mlrd.so'mni tashkil qilib, shundan 116,7 mlrd.so'mi respublika budjeti mablag'ariga to'g'ri kelib, ushbu raqam o'tgan yili shu davrda 60,1 mlrd.so'mni tashkil qilgan. Korxonalar (mahalliy) budjet mablag'lari 2018 yil yanvar-sentabr oylarida 688,3 mlrd. so'mni o'tgan yil shu davrda 316,7 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Aholi mablag'lari 662,1 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, o'tgan yili shu davrda 518,0 mlrd.so'mni tashkil qilgan. Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari 570,2 mlrd.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, o'tgan yili shu davrda 366,9 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Chet el investitsiyalari va kreditlari 1654,3 mlrd. so'mni takil etgan bo'lsa, o'tgan yili shu davrda 550,5 mlrd.so'mni tashkil qilgan. Budjetdan tashqari fond mablag'lari esa 178,2 mln. so'mni, o'tgan yil shu davrda 80,7 mlrd.so'mni tashkil qilgan.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni mablag' manbalari bo'yicha taqsimlanishi

(mlrd.so'da)




2018 yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

2018 yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar jami 3874,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan qurilish montaj ishlariga 2747,1 mlrd.so'm mablag'

o'zlashtirilib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 70,9 foizni tashkil etdi. Mashina, asbob-uskunalarga 927,5 mlrd.so'm o'zlashtirilib, jamiga nisbatan 23,9 foizni tashkil qildi. Boshqa kapital ishlar va sarflarga 200,3 mln. so'm mablag' o'zlashtirilib, jamiga nisbatan 5,2 foizni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (mlrd.so'mda)



Moliyalashtirish manbalariga ko'ra asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Moliyalashtirish manbalari	2018 yil yanvar-sentabr		2017 yil yanvar-sentabr	
	Jami investitsiya mlrd.so'm	Jamiga nisbatan %da	Jami investitsiya mlrd.so'm	Jamiga nisbatan %da
Barcha manbalar xisobidan	3874,8	100,0	1896,6	100,0
Markazlashgan investitsiya jami:	1693,7	43,7	622,9	32,8
ulardan Respublika budjeti	116,7	3,0	60,1	3,2
Budjetdan tashqari fond mablag'lari	178,2	4,6	80,7	4,3
Xukumat kafolati ostidagi chet el investitsiyalari va kreditlari	1393,8	36,0	478,3	25,2
Bolalar sportini rivojlantirish	5	0,1	3,8	0,1
Markazlashmagan investitsiya jami:	2181,1	56,3	1273,7	67,1
ulardan korxonalar tashkilot mablag'lari	688,3	17,8	316,6	16,7
bank kreditlari	543,7	14,0	317,6	16,7
Boshqa horijiy investitsiyasi va kreditlar	110,6	2,8	4,8	0,3
Boshqa tashkilotlarning qarzi mablag'lari	26,5	0,7	49,3	2,6
to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyasi va krediti	149,9	3,9	67,3	3,5
aholi mablag'lari	662,1	17,1	518,1	27,3

2018 yil yanvar-sentabr oylarida moliyalashtirishning barcha manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar xajmi 3874,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, markazlashgan investitsiyalar 1693,7 mlrd. so'mni yoki jami investitsiyalarning 43,7 foizini markazlashmagan investitsiyalar esa 2181,1 mlrd.so'mni tashkil qilib, jami investitsiyalarning 56,3 foizini tashkil qilgan.

Xukumat kafolati ostidagi chet el investitsiyalari va kreditlari 1393,8 mlrd. so'mni tashkil qilib, jami investitsiyadagi ulushi 36,0 foizni tashkil qildi. Korxonalar va tashkilot mablag'lari 688,3 mlrd.so'mni tashkil qilib, jami investitsiyaning 17,8 foizini, aholi mablag'lari 662,1 mlrd.so'm bo'lib, jami investitsiyaning 17,1 foizini tashkil qildi.

2018 yil yanvar-sentabr oylarida korxonalar turlari bo'yicha investitsiyalarning taqsimlanishi

Viloyat	Jami	Yirik tashkilotlar		Notijorat tashkilotlari	Kichik biznes va formal bo'lmagan sohalar		
		mlrd.so'm	O'tgan yil mos davrga nisbatan %da	mlrd.so'm	mlrd.so'm	O'tgan yil mos davrga nisbatan %da	jamiga nisbatan %da
Namangan	3874,8	2376,6	199,7%	33,0	1465,1	119,5	37,8

2018 yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda jami 3874,8 mlrd.so'm investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, shundan 2376,6 mlrd. so'mi yoki jamiga nisbatan 61,3 % i yirik korxonalar hissasiga, 33,0 mlrd.so'mi yoki jamiga nisbatan 0,9 % notijorat tashkilotlariga va 1465,1 mlrd. so'mi yoki jamiga nisbatan 37,8 %i kichik biznes va formal bo'lmagan sohalar (yakka tartibdagi turar va noturar joylar)ga to'g'ri kelgan.

2018 yil yanvar-sentabr oylarida investitsiyalarning hududlar kesimida o'sish sur'ati % da

Namangan shahrida (1228,1 mlrd.so'm yoki 204,5 %) – ko'p qavatli turar-joylar qurilishi, maktab, maktabgacha ta'lim muassasasi hamda sog'liqni saqlash ob'ektlarini kapital ta'mirlash, rekonstruksiya qilish;

To'raqo'rg'on tumanida (1139,2 mlrd.so'm yoki 404,4 %)- To'raqo'rg'on elertstansiyasini qurish ishlari hamda avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash va kichik biznes sub'ektlari tomonidan issiqxonalar qurish hisobiga amalga oshirildi;

Kosonsoy tumanida (207,1 mlrd.so'm yoki 220,5 %)-Kosonsoy tumanida ko'prik qurilishi, avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash;

Norin tumanida (89,1 mlrd.so'm yoki 124,3 %)- Norin tumani hududida avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash hamda kichik biznes sub'ektlari tomonidan bajarilgan ishlar hisobiga amalga oshirildi;

Shu bilan birga, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlari hajmining kamayishi Pop tumanida - 31,1% (170,5 mlrd.so'm), Yangiqo'rg'on tumanida – 80,0% (69,2 mlrd.so'm), Namangan tumanida-88,8% (197,4 mlrd.so'm) qayd etildi.